Ahmad ibn Asad



Ahmad ibn Asad

(?-865)

(842-864)

817 yildan Farg‘ona va 842 yildan Samarqand amiri bo‘lgan. Somonxudotning nabirasi. *Rofe ibn Lays* qo‘zg‘oloni paytida Ahmad ibn Asad o‘z birodarlari ***Nuh*, *Yahyo*** va ***Ilyos***lar bilan Sug‘dda qo‘zg‘olonni bostirishda xalifalikka katta yordam bergan. Buning evaziga xalifa Ma’munning ko‘rsatmasiga ko‘ra Xuroson hokimi *G‘asson ibn Abbod* (813-821) 817 yilda Ahmad ibn Asadni Farg‘onaga, akasi *Nuh ibn Asad*ni esa Samarqandga, Choch va Ustrushonaga Yahyoni, Hirotga Ilyosni amir qilib tayinlaydi. Akasi Nuh vafotdan keyin (842) Ahmad ibn Asad Samarqand amiri bo‘lib qoldi. 875 yilda xalifa *Mu’tamid* (870-892) Ahmad ibn Asadning o‘g‘li *Nasr ibn Ahmad*ni butun Movarounnahr amiri etib tayinlaydi. Ahmad o‘z nomidan mis chaqalar zarb etadi. Ahmad Somoniy asta-sekin Movarounnahrni o‘z oilasi boshchiligida birlashtirishga kirishadi. Tohiriylar Ahmadning bu faoliyatiga qarshilik ko‘rsata olmadilar.

2023-10-29 20:18:16